

9-mavzu: Tabiat darsi. Ona tili darsi (“O’g’limga darsliklar” turkumidan)

Halima Ahmedova

Darsning maqsadi:

a)ta’limiy: o`quvchilarni she’r matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish, o`quvchilarni to‘g’ri, ravon va ifodali o‘qishga, she’r mazmunini tahlil qila olishga o‘rgatish.

b)tarbiyaviy: o`quvchilarga ilm olishga qiziqtirish, ularni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash.

c)rivojlantiruvchi: o`quvchilarning ifodali o‘qish ko`nikma va malakalarini,og`zaki nutqini rivojlantirish.

Dars turi: Yangi tushuncha,bilimlarni shakllantiruvchi

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish,”Topib o`qi!” ”Kim hozirjavob“ ta’limiy o`yinlari.

Dars jahozi: Mavzuga oid rangli rasmlar, tarqatma materiallar

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism: Salomlashish. Davomatni aniqlash.

O`quvchilarni darsga hozirlash.

Ma’naviyat daqiqasi o`tkaziladi.

II.Uy vazifasini so`rash va o`tilgan mavzuni mustahkamlash.

Uyga berilgan vazifa – “*Ona tilim*“ she’rini o`quvchilar yoddan aytib beradilar.

”Kim hozirjavob?“ o‘yini.

1.She’rning muallifi kim?

2. She’rda ona tilimiz qanday ta’riflangan?

3.Til haqidagi maqollardan aytинг.

4.Yurtimizda til bayrami qachon nishonlanadi?

III.Yangi mavzu bayoni.

O'quvchilar quyidagi savollarga javob beradilar:

**Maktabda
eng yaxshi
ko'rgan
fanlaringiz
qaysi?**

**Ayting-chi,
hamma fanni
yaxshi
o`zlashtirish
uchun nima
qilish kerak?**

**Siz o'zingizdan
kichiklarga
qanday
maslahatlar
bergan
bo`lardingiz?**

Bugungi mavzu e'lon qilinadi:"Tabiat darsi", "Ona tili darsi" she'rlari ("O'g'limga darsliklar" turkumidan). Muallif haqida ma'lumot beriladi.

HALIMA AHMEDOVA

***Halima Ahmedova – "Ko'zimning tili",
"Tungi marvaridgullar", "Erk darichasi",
"Tiyramoh", "Afsun", "Umid soyasi",
"Shafaq ibodati", "Nigoh qiblasi",
"Yosuman gulining soyasi", "Yashil",
"Tashbeh" kabi kitoblar muallifi, shoira.
Uning kitoblarida insonni yaxshilikka
boslash, ma'nан poklanish, Vatanga
muhabbat tuyg'ulari ifoda etilgan.***

Yangi mavzu o`quvchilarga o`qituvchi tomonidan ifodali o`qib beriladi.
Mazmuni tushuntiriladi.

Lug`at ishi:

Olis – uzoq

Parvoz – uchish

Ajib – ajoyib

She'r o`quvchilarga zanjir usulida o`qitiladi.

IV.Yangi mavzuni mustahkamlash.

"Kim hozirjavob?" o`yini.

- 1.** "Tabiat darsi" she'rida Vatanni ulug'lovchi qanday misralardan foydalanilgan?
- 2.** Muallif she'rda dunyoga qanday ta'rif bermoqda?
- 3.** Siz ham nega aynan "Ona tili", "Ota tili" emas, degan savolni bergenmisiz?
- 4.** Nima uchun shoira o'g'liga qarab: "*Endi ertaklar ham seni aldamas*", demoqda?
- 5.** "*Tinglasang keladi har so'z qatidan, Navoiy bobongning o'tli nafasi*" misralarini izohlashga harakat qiling.
- 6.** Ona tilimizni ulug'lovchi misralarni toping.

Darslikda berilgan topshiriq bajariladi.

Tabiat darsi va Ona tili darsi she'rlarini bir-biriga bog'lab turgan mavzularni ustun qilib yozing.

"Topib o`qi" o`yini. O`quvchilar "Tabiat darsi" she'ridan Vatanidan ketganlar haqida aytilgan misralarni topib oqiydilar.

Mashq daftар bilan ishslash.

1-topshiriq. Savollarga javob yozing.

O`quvchilar berilgan savollarga javob yozadilar.

2-topshiriq. “Tabiat darsi” va “Ona tili darsi” she’rlarini bir-biriga bog’lab turgan mavzularni ustun shaklida yozing. Topshiriq daftarga ustun shaklida yoziladi.

3-topshiriq. Berilgan she’rlardan ilhomlangan holda qofiyadosh kichik she’rlar yozishni mashq qiling.

O`quvchilar kichik she’rlar yozishni mashq qiladilar.

V.Darsni yakunlash va o`quvchilarni baholash.

Savol-javob o’tkaziladi.

– She’rdan qanday xulosa chiqardingiz?

Darsda faol qatnashgan o`quvchilar baholab, rag`batlantiriladi.

VI.Uyga vazifa berish. „Ona tili“ darsi“ she’rini yod oling. Boshqa fanlarni ulug’lovchi, qofiyadosh kichik she’rlar yozishni mashq qiling.

10-mavzu: Baxtimizning timsoli(Temur Ubaydullo)

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy: o`quvchilarni she’r matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish, ifodali o`qishni o`rgatish.

b)tarbiyaviy: o`quvchilarda vatanparvarlik, fidoyilik, jonkuyarlik kabi fazilatlarni tarbiyalash.

c)rivojlantiruvchi: o`quvchilarning she’rni ifodali o`qish, mazmunini so’zlab berish malakalarini rivojlantirish.

Dars turi: Yangi tushuncha,bilimlarni shakllantiruvchi

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish,”Venn“ diagrammasi metodi, savol-javob,ta’limiy o`yinlar.